O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_____ D.Z.Dustov
“09” Yanvar 2026 yil

“MAKTABGACHA VA MUSIQIY TA’LIM” KAFEDRASI

“RITMIK HARAKATLAR VA MUSIQIY O‘YINLAR METODIKASI”

o‘quv moduli bo‘yicha

O‘QUV-USLUBIY MAJMUASI

Ta’lim turi: **Malaka oshirish**
Malaka oshirish muddati: **1 oy (100 soat)**

TOSHKENT-2026

Annotatsiya: Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarda ritmik harakatlar va musiqiy o‘yinlar orqali jismoniy, estetik hamda musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Unda ritmik harakatlar va musiqiy o‘yinlarning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyati, ularni tashkil etish shakllari, metod va usullari, shuningdek, pedagog tomonidan qo‘llaniladigan didaktik yondashuvlar keng ochib berilgan.

O‘quv-uslubiy majmua maktabgacha ta’lim tashkilotlari musiqa rahbarlari, pedagogika yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar hamda soha mutaxassislari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bolalarda ritmni his qilish, muvofiqlashtirilgan harakatlarni bajarish, musiqiy did va ijodkorlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tuzuvchilar: MTTDMQTMOI “Maktabgacha va musiqiy ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi M.SH.Qurbonova

Taqrizchilar: Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti “Maqom xonandaligi” kafedrasi dotsenti Sh.B.Matyakubov

MTTDMQTMOI ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i D.K.Amanova

Malaka oshirish toifasi: Maktabgacha ta’lim tashkiloti musiqa rahbarlari

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Ilmiy kengashining 2026-yil 29 yanvar №1-sonli qarori bilan ma’qullangan.

MUNDARIJA

I. KIRISH 4

II. TEXNOLOGIK XARITA 6

III. MA’RUZA MATN VA O‘QUV MATERIALLAR 7

IV. O‘Z-O‘ZINI TEKSHIRISH UCHUN TEST SAVOLLAR 21

V. MODUL YUZASIDAN MALAKA ISHI MAVZULARI 22

VI. TARQATMA MATERIALLAR 24

VII. ATAMALAR IZOHLI LUG’ATI 31

VIII. FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR 33

KIRISH

Maktabgacha yosh davri bola shaxsining har tomonlama shakllanishida eng muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bolalarning musiqiy qobiliyatlari, estetik didi, harakat madaniyati hamda ijodiy faolligi jadal rivojlanadi. Shu jarayonda musiqiy-ritmik harakatlar bolalarni musiqa bilan faol muloqotga kirishtirish, musiqani his etish va tushunishga o‘rgatishda samarali vosita sifatida muhim o‘rin tutadi.

Musiqiy-ritmik harakatlar orqali bolalar musiqaning ritmi, tempi, xarakteri va kayfiyatini harakatlar yordamida ifoda etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularda ritm hissini faollashtirish, musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish, shuningdek, ijodiy tasavvur va mustaqil fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladi. Musiqa ostida bajariladigan harakatlar bolalarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda, jamoada harakat qilish, bir-birini his etish va o‘zaro hamkorlik qilish malakalarini ham mustahkamlaydi.

Shuningdek, musiqiy-ritmik harakatlar musiqiy materialni motor-plastik qayta ishlashga asoslangan bo‘lib, u musiqaning emotsional ta’sirini yanada kuchaytiradi. Harakat va musiqaning uyg‘unligi natijasida bolalarda musiqiy shakllar, musiqiy rivojlanish qonun-qoidalari haqidagi tasavvurlar mustahkamlanadi. Shu bois maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqiy-ritmik harakatlarni to‘g‘ri tashkil etish bolalarning har tomonlama musiqiy rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” 595-son qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PQ-4312-son, 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-112-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-iyuldagi “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 423-son qarorida maktabgacha ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb masalalar belgilab o‘tilgan.

“Ritmik harakatlar va musiqiy o‘yinlar” o‘quv moduli yuqorida belgilangan vazifalarni bajarishda muayyan darajada xizmat qiladi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim jarayonida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning musiqiy didi, estetik tafakkuri hamda jismoniy va emotsional holatini uyg‘un shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, musiqiy ta’limda ritmik harakatlar va musiqiy o‘yinlardan samarali foydalanish bolalarning musiqani chuqur his etishi, ritm va ohangni anglab yetishi hamda ijodiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Musiqiy-ritmik harakatlar bolalarda musiqa ritmiga mos harakatlanish, koordinatsiya, diqqat va xotirani rivojlantirish bilan bir qatorda, jamoada ishlash, o‘zini erkin ifodalash va ijobiy emotsional holatni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu jihatdan, musiqiy o‘yinlar orqali olib boriladigan mashg‘ulotlar ta’limning samaradorligini oshirib, bolalarning musiqaga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Mazkur o‘quv modulining dolzarbligi shundaki, u tinglovchilarga musiqiy-ritmik harakatlarni pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etish, zamonaviy ta’lim talablariga mos metod va uslublardan foydalanish hamda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda musiqiy mashg‘ulotlarni samarali olib borish bo‘yicha zarur bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi. Shuningdek, modul musiqiy ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo‘llash, ijodiy muhit yaratish va bolalarda musiqiy madaniyatni rivojlantirish ehtiyojidan kelib chiqib ishlab chiqilgan.

Modul maqsadi: Tinglovchilarga musiqiy-ritmik harakatlar asosida bolalar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, musiqiy va ijobiy kompetensiyalarini rivojlantirishga oid bilimlarini kengaytiradi.

Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar modulni o‘zlashtirish jarayonida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar:

musiqa asari ijrosida musiqiy-ritmik harakatlarni namoyon etiladigan ifoda vositalari, ritmik harakatlar negizida ijodiy faollikni shakllantirgan holda bolalarni ijodiy faollikka yo‘naltirishga o‘rgatiladi. Musiqa mashg‘ulotlarida musiqiy-ritmik harakatlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘nikma va malakalariga ega bo‘lishadi;

bolalarda musiqa ritmiga monand harakatlanish ko‘nikmalarini shakllantirish haqida musiqiy asarlarga ritmik-gimnastika harakatlarini qo‘yish uslublari oid amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qiladi;

shovqinli cholg‘ular va predmetlar orqali musiqiy-ritmik harakatlar bajarish, chapak orqali nota savodiga o‘rgatish usullari, musiqiy ifoda vositalarini farqlashga o‘rgatishda ritmikadan foydalanish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishadi.

TEXNOLOGIK XARITA

	Mavzu	Jarayon	Resurs, tarqatma materiallar	Tinglovchining faoliyati
80 daqiqa	**MTT da musiqiy ritmikani tashkil etishning ahamiyati (nazariy 2 soat)**			
40 daqiqa	Ritmika kursining pedagogik tahlili	Interaktiv muloqot	Slayd	Tahliliy mulohaza bildiradi
40 daqiqa	Ritmika bolalarning ritm tuyg‘usini shakllantirish omili.	Qiyosiy tahlil	Slayd	O‘zlashtiradi
80 daqiqa	**Musiqiy ritmik mashqlar va o‘yinlar (amaliy 2 soat)**			
40 daqiqa	Musiqiy ritmik mashqlar	Bahs munozara	Shovqinli cholg‘ular	Tahliliy mulohaza bildiradi, amalda bajaradi
40 daqiqa	Musiqiy ritmik o‘yinlar	“Basked” metodi	Musiqiy cholg‘ular	Tahliliy mulohaza bildiradi, amalda bajaradi
80 daqiqa	**Dastlabki milliy raqs harakatlari (amaliy 2 soat)**			
40 daqiqa	Turli mavzularga oid milliy raqs harakatlari	“Basked” metodi	Ko‘rgazmali vosita	Tahliliy mulohaza bildiradi, amalda bajaradi
40 daqiqa	Milliy kuylar ostida raqs harakatlari	Ijodiy jarayon	Musiqa asarlari	Tahliliy mulohaza bildiradi, amalda bajaradi

MA’RUZA MATNI VA O‘QUV MATERIALLAR

1-Mavzu: MTT da musiqiy ritmikani tashkil etishning ahamiyati

Reja:

1. Ritmika kursining pedagogik tahlili
2. Ritmika bolalarning ritm tuyg‘usini shakllantirish omili

Tayanch so‘z va tushunchalar: ritmika, ijodiy qobiliyatlar, musiqiy-ritmik harakat, musiqiy pyesa, musiqiy signal, raqs elementlari, dinamika, musiqa shakli, musiqiy jumla, tovush yo‘nalishi, improvizatsiya, tovush kayfiyati

1.Ritmika kursining pedagogik tahlili.

Musiqiy-ritmik harakatlar ham boshqa faoliyat turlari kabi bolalarda har tomonlama musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiradi:

- Musiqiy rivojlanadi;
- ijodiy qobiliyatlarni;
- jamoa bo‘lib harakat bajarish malakalari shakllandi.

Musiqa ostida harakatlar bajarish bolalarda ritm hissini faollashtiradi. Bu esa mashg‘ulotning musiqiy materialini yanada chuqurroq o‘zlashtirish harakatlar yordamida asarning xarakter xususiyatlarini ko‘rsatadilar.

Musiqiy-ritmik harakat — faoliyat asosida musiqiy materialni moterplastik qayta ishlashdir. U musiqaning emotsional ta’sirini kuchaytiradi. Bularning hammasini musiqa, uning xarakteri, kayfiyati bilan harakatning uyg‘unlashtiruvchi ko‘nikma va malakalarni singdirilishi oqibatida yuz beradi va maqsadga erishiladi.

Ritmik harakatlar yordamida musiqa shakllari, musiqiy rivojlanish qonuniyatlari haqidagi taassurotlar mustahkamlanadi. Harakat xarakteri va yo‘nalishini o‘zgartirish orqaligina erishish mumkin.

Musiqiy pyesalar, qo‘shiqlarni sahnalashtirish ifodali harakatlar orqali nafaqat musiqiy-eshituv taassurotlari rivojlanadi, balki ijrochilik qobiliyatlari, badiiy didlari shakllandi. Agarda ularga mustaqil harakat o‘ylab topish vazifasi yuklatilsa, ular musiqaning obraziga, xarakteriga mos o‘zlari harakat o‘ylab topadilar va bajaradilar. Odatda sahnalashtiruvchi raqslarga dasturlik musiqa tanlab olinadi, chunki uning mazmuni va harakatlarning ketma-ketligi ayon bo‘ladi. Bolalar musiqa rahbari bilan birgalikda mos harakatlarni topadilar. Bajarish vaqtida musiqa rahbari bolalarga yordam beradi, yangi harakatlarni to‘g‘ri va ifodali bajarish kerakligini tushuntiradi, ko‘rsatib beradi.

Musiqiy-ritmik harakat faoliyati o‘zaro bog‘langan uch yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

Birinchisi, musiqiy rivojlantirishni ta’minlaydi, ya’ni musiqiy eshituvni o‘stirish, harakatni musiqaga moslash ko‘nikmalarini shakllantirish, musiqiy bilimlarning o‘zlashtirishi; musiqiy va musiqiy eshituvni rivojlantirishni ta’minlaydi, harakatni musiqaga bo‘ysundira olish malakasini shakllantiradi, musiqiy bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradi.

Ikkinchi yo‘nalish to‘g‘ri harakat ko‘nikmalarini hosil qiladi: yurish (marshona, shaxdam, tetik, xotirjam, sportcha, tantanavor, keskin prujina yurish va hokazo); qadam tashlash (baland, oyoq uchida, keng, yumshoq, prujinali, xorovodli va hokazo); sakrashlar (yengil, harakatchan); aylanishlar; qo‘l harakatlari (mayin, ohista, harakatchan); chapaklar (sekin, qattiq, past, baland, qo‘l siltab, bir-biriga yaqin ushlab turib, sirg‘aluvchi «likopchalar», kaftlarni yaqin tutgan holda sirpanma harakatlar); raqs elementlari (o‘zbek xalq raqslaridan «oyna», «arqon», «yelka uchirish», «koptokni yuqoriga ot», chapak va yon tomonga qo‘l harakati, ball, polka, golop, valsga o‘xshash raqs elementlari va hokazo.); oyoq uchida aylanish, prujinali qadam bilan sakrashning uyg‘unligi; qo‘l harakatlari (mayin, keskin); turli holatlarda turish va o‘zgartirish; buyumlar bilan harakat bajarish (koptok, lentalar, bayroqchalar bilan) ni o‘z ichiga oladi.

Uchinchi yo‘nalish bolalarda tana harakatlarini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan; aniq va tez to‘xtash, harakatni o‘zgartirish va hokazo).

Ritmika bolalarning ritm tuyg‘usini shakllantirish omili.

Harakat ko‘nikmalari aniq musiqiy eshitish vositasidagi tasavvurini (masalan, tembr yoki registr va hokazo) va musiqiy bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga qaratilgan bo‘lishi lozim.

Mashg‘ulotda harakatlarni qo‘llash uslublari

Musiqiy-ritmik harakatlar bolalarning badiiy tajribasiga aylanishi, badiiy rivojlanishini boyitishi uchun bolalarni bu faoliyatga tayyorlash, eng avvalo, harakat malakalari haqida tasavvurga ega qilish lozim. bolalar xonada musiqa ostida qadam tashlash, yengil yugurish, har tomonga tarqalish kabi boshlang‘ich malakalarini egallaydilar. Musiqiy signal — belgilarga (harakatni boshlash, o‘zgartirish va hokazo) javoban harakatlanishni o‘rganadilar. Masalan, barabanning jaranglashi o‘rinlardan turib saflanishga signal bo‘lsa, marsh kuyining boshlanishi qadam tashlab turgan joyda harakatlanishga, kuyga uchburchakning jo‘rligi qo‘shilgan joyda esa sakrashga o‘tishni ko‘rsatishi lozim.

Musiqiy-ritmik harakatlar bolalarni badiiy jihatdan boyitilishi uchun bolalarni shu faoliyatga tayyorlash kerak. Shuning uchun bolalar avval harakatlanish malakalari haqida taassurot olishlari zarur. Ular xonada musiqa ostida marsh yurishni, yengil yugurishni, shartli musiqiy signallarga bo‘ysunishni o‘rganadilar.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ularning tashabbuskorlarini qo‘llab — quvvatlash zarur, o‘z raqsiga o‘ylab topgan harakatlarni asar xarakteriga mos va unga xos xususiyatlari mujassam bo‘lishi kerak.

MTTda musiqiy-ritmik faoliyat quyidagicha maqsadga muvofiq rejalashtiriladi.

Musiqa rahbarining faoliyati bolalarni yanada faollashtirish, shuningdek harakatlarni o‘zlashtirishga qaratilgan bo‘lishi kerak:

a) raqs elementlari

b) jismoniy tarbiya elementlari.

Musiqiy-ritmik harakatlarda tovush balandligini eshitishni shakllantirish

1. Bolalar ko‘zlarini yumib, tovush balandligini cholg‘uning tembri bo‘yicha aniqlaydilar. Harakat — ramzlar orqali javob qaytaradilar. Masalan: A. Muhammedovning «Shohi so‘zana» quyidagi past tovushlarga-oyoqlarini o‘ynatadilar, baland tovushga — qo‘l bilaklarini aylantiradilar; doira tovushiga — shu cholg‘u ijrosini ko‘rsatadilar. 2. Bolalar turadilar. Birinchi turgan bola koptokni oladi. Agar musiqa baland yangrasa, bola koptokni boshi orqali keyingi bolaga doira bo‘ylab uzatadi, agar past yangrasa, oyoqlari orasidan uzatadi.

2. Bola tinglagan ohangining doskaga bo‘r bilan chizadi. Keyin ikki yoki uch bola xuddi shuni xayolan doskaga chizadilar va harakat bilan ifodalaydilar. Bu mashqda D.Zokirovning «Gulxan» kuyidan foydalanish mumkin.

Musiqiy-ritmik harakatlarda ritm hissini oshirish [1]

1. Bolalar doira bo‘lib yoki partada o‘tiribdilar. M.Mirzaevning «Bahor valsi» kuyiga koptokni ushlagan bola choraktalik cho‘zimga koptokni u qo‘lidan bu qo‘liga o‘tkazadi, yarimtalik cho‘zimga doira bo‘ylab yoki partadoshiga uzatadi.

2. Bolalar xona bo‘ylab yorqin kuyga yuguradilar, mayin, ohista musiqani tinglashlari bilan juft bo‘lib aylanadilar.

3. «Aks sado» o‘yini harakatlarda: ritmik suratni boshdan yuqorida, orqada oldida chapak bilan takrorlash, keyin oyoqlarni turgan joyda to‘pillatish yoki yon tomonga chapak chalib oyoqlarni to‘pillatish.

4. Bolalar vazifa oladilar: berilgan harakatga ritmik suratni chapak orqali yoki kuylab berish. Avval musiqa rahbari ritmik asosni harakatda ko‘rsatadi, keyin esa bolalar chapak yoki barmoqlarni qarsillatish orqali namoyon etadilar.

Harakatlar yordamida bolalarda bir qator musiqiy-eshituv tasavvurlarini shakllantirish mumkin:

[1] Qosimova M. Bolalar bog‘chasida xalq milliy raqslari. T. 2003-y.

Ikki yoki uch hissasi o‘lchov haqidagi tasavvurlar

1) Bunda bolalar turgan holda 2/4 o‘lchovidagi musiqaga oyoq uchida ko‘tarilib va pastlab harakat bajaradilar, yoki

2) 2/4 o‘lchovidagi musiqaga kaft va yelkalarini boshga qarab ko‘taradilar va o‘z holiga tushiradilar

3) 3/4 o‘lchovidagi musiqaga esa-birinchi hissaga yengil yarim o‘tiradilar va «uch»ga turadilar va hokazo.

Harakatli mashqlar

1) Bolalar ko‘zlarini yumib o‘tiradilar va tovushlar balandligi yoki cholg‘ular tembrlarini aniqlashga harakat qiladilar. Javoblarni bolalar harakatli belgilar yordamida ko‘rsatadilar. Masalan, past tovushlarga oyoqlar «raqs tushadi», baland tovushlarga — qo‘l bilaklari, doira jarangiga bolalar doirasida ijroga taqlid qilib ko‘rsatadilar.

2) o‘rta registrdagi tovush eshitilsa, bolalar ko‘krak balandligida chapak chaladilar, baland registrdagi tovush chalinsa — boshlari uzra chapak chaladilar.

3) Ijodkorlikka qaratilgan mashq: 3 qismli asardagi registrlarni taqqoslashda qo‘llar yuqori registrga «raqs tushadilar», o‘rta registrda esa -tanani harakatlantiradilar va hokazo.

Bunda bir bolaning harakatlariga ikkinchi bola oddiy cholg‘uda ritmik jo‘r bo‘lishi ham mumkin. Sinfga esa bu ijodiy vazifaning bajarilishini baholash topshiriladi.

Musiqa tempi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish

1) Musiqa rahbari ijrochiligida yoki kuylayotgan turli tempdagi musiqiy asar ostida yurish yoki yugurish (sakrash);

2) Hayvonlar harakatiga taqlid: sekin harakatlanuvchi — fil, toshbaqa; tez harakatlanuvchi — tulki, quyon, it va hokazo.

Bunday va bunga o‘xshash musiqiy-ritmik harakatlar yordamida musiqa rahbari bir qator musiqiy tasavvurlar va bilimlar doirasini (dinamika, musiqa shakli, musiqiy jumla, tovush yo‘nalishi va hokazo) tarkib toptirishi boshlang‘ich sinflarda musiqa o‘qitish ishlarining samaradorligini oshiradi.

1. Yurish va yugurish turli tempdagi ijro. P.I.Chaykovskiyning «Yog‘och soldatchalar marshi» bunday mashqlarda juda qo‘l keladi.

2. Ijro etilayotgan musiqiy obrazga xos ravishda harakatlanish.

3. Bir bola bolalarga tanish bo‘lgan harakatlanuvchi mashqlarni boshqarib turadi. Qolganlar esa bajaradi.

4. Hayvonlarga taqlidiy harakatlar: sekin-fillar, toshbaqalar, ayiq; tez-quyon, kuchuk, va boshqalar.

5. Musiqaning tezlashishi yoki sekinlashishi ostida harakatlarni o‘zgartirish: yurishdan yugurishga, yugurishdan sakrashga va hokazo.

6. Musiqaning tezlashishi va to‘xtashiga improvizatsiya, masalan: avtomobil, parovoz, arg‘imchoq.

Musiqiy dinamika haqidagi taassurotlarni shakllantirish

1. Musiqa ostida dinamikani ko‘rsata olish *R* ga — oyoq uchida yurish, *R* ga — tovonda yurish, *R/R* ga — dinamikaga xos kichik, o‘rta, katta qadamlar bilan yurish.

2. Raqsda dinamikaning o‘zgarishini qo‘llar, bosh, yelka va hokazolar bilan ko‘rsata olish. Masalan: kaft-bilakni aylantirish, tirsak-qo‘llarni aylantirish.

3. Musiqa ostida krishchendo va diminuendoga qarab harakat bajarish: bolalar doira shaklida turib oladilar, agar tovush sekin-asta pasaya borsa, doira torayadi, balandlasa kengayadi.

4. Gullar raqsini improvizatsiya qilish orqali bolalar musiqadagi dinamik o‘zgarishlarni ko‘rsatadilar, ya’ni gul o‘sadi, ochiladi, so‘liydi yoki quyoshga talpinadi, shamoldan to‘satdan sinadi va hokazo.

Musiqiy-ritmik harakatlarda tovush kayfiyati haqidagi taassurotlarni shakllantirish

1. Bolalar juft bo‘lib turadi, har bir bolada bittadan yumshoq koptok bor. Stakkato ijroga bolalar koptokni yerga (polga) uradilar, mayin, ohista kuyga u qo‘ldan bu qo‘lga o‘tkazadilar. Bunda R.Shumanning «Jasur chavandoz» kuyidan foydalanishimiz mumkin.

2. Musiqa rahbari katta koptokni olib — stakkatoga-koptokni polga uradi, legatoga esa koptokni havoda yarim doira yoki to‘lqinsimon harakat qilib qo‘llarida harakatlantiradi. Keyin esa bolalarga stakkato kuyga koptok misol sakraydilar, ligatoga qo‘llarini havoda u tomondan bu tomonga «shamolda esayotgan navdalar» harakatini bajaradilar.

3. Mayin ohista kuy ostida bolalar juft bo‘lib doirada aylanadilar. Qisqa yorqin kuyni tinglashlari bilanoq qo‘llarini qo‘yib yuboradilar va toki legato kuy ijro etilmagunicha turgan joylarida yengil sakraydilar

Nazorat savollari:

1. “Ritmik harakatlar va musiqiy o‘yinlar metodikasi” modulining maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

2. Musiqa mashg‘ulotlarida musiqiy–ritmik harakatlardan samarali foydalanishda qanday omillaridan foydalaniladi?

3. Musiqiy-ritmikaning bola jismoniy tarbiyasidagi ahamiyati qayday?

4. Musiqa rahbarlari ritm hissini shakllantirishda nimalarga ahamiyat qaratishi lozim?

2-Mavzu: Musiqiy ritmik mashqlar va o‘yinlar

Reja:

1.Musiqiy ritmik mashqlar.
2.Musiqiy ritmik o‘yinlar

Tayanch so‘z va tushunchalar: koordinatsiya, muvozanatni saqlash ko‘nikmalari, ritm, temp, dinamika, shovqinli cholg‘ular, ahloqiy-irodaviy sifatlar, ritmik gimnastika, ritmik tarbiya, tayanch — harakat apparati mashqi, umum-rivojlantiruvchi mashqlar

1. Musiqiy ritmik mashqlar.

Musiqiy-ritmik mashqlar va o‘yinlar bolalarda musiqiy eshitish qobiliyati, ritmni his etish, harakat va musiqaning uyg‘unligini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu mashqlar bolalarning jismoniy rivojlanishi bilan birga, ularning estetik didi, ijodiy faolligi va emotsional holatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Musiqiy-ritmik mashqlar jarayonida bolalar musiqa ohangi, sur’ati va ritmiga mos holda harakatlanishni o‘rganadilar. Bu esa ularning diqqat, xotira, koordinatsiya va muvozanatni saqlash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Shuningdek, ritmik mashqlar bolalarda jamoa bilan ishlash, musiqani tinglash va unga javob harakati bilan munosabat bildirish malakalarini rivojlantiradi.

2.Musiqiy ritmik o‘yinlar

Musiqiy-ritmik o‘yinlar esa bolalarning musiqaga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, mashg‘ulotlarni qiziqarli va mazmunli tashkil etishga yordam beradi. O‘yinlar orqali bolalar musiqiy ifoda vositalarini (ritm, temp, dinamika) farqlashni, musiqiy obrazlarni harakat orqali ifodalashni o‘rganadilar. Ayniqsa, shovqinli cholg‘ular, chapak va predmetlardan foydalanish bolalarda ritmni chuqurroq anglash va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Musiqiy-ritmik mashqlar va o‘yinlar bolalarda musiqiy madaniyatni shakllantirish, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va musiqiy ta’lim samaradorligini oshirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi.

Bolalarni jismoniy tarbiyalash jarayonida qo‘yidagi asosiy vazifalar hal etiladi.

Birinchi vazifa — sog‘liqni mustahkamlash, tana a’zolarini chiniqtirish, jismoniy jihatdan to‘g‘ri rivojlanish hamda uning ishlash qobiliyatining oshirishiga ta’sir etishdir. Jismoniy mashqlarning sihat-salomatlikka foydasi cheksiz ekanligini D. Adisson bunday tasvirlaydi: «Mutolaa aql uchun qancha zarur bo‘lsa, jismoniy mashqlar ham badan uchun shuncha zarur».

Suqrot hakim esa bunday deydi: **«Gimnastika yordami ila men badanimning muvozanatini to‘g‘rilab olaman».**

Ikkinchi vazifa — bolalarda yangi harakat turlariga qiziqish, koʻnikma va malakalar hosil qilish, ularni maxsus bilimlar bilan qurollantirish zarur. Oʻrgatish jarayonida bolalar harakat, koʻnikma va malakalarni egallaydilar.

Uchinchi vazifa — bolalarning yoshiga, jinsiga muvofiq keladigan asosiy harakat sifatlarini rivojlantirishdir. Shu bilan birga bolalarda ahloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalash, xulq-atvor madaniyati koʻnikmalarini tarkib toptirish kerak.

Toʻrtinchi vazifa — bolalarda oʻz sogʻligiga ongli munosabatni tarbiyalash boʻlib, bu ularning ozoda-sarishtalik tartibida, gigiyena qoidalariga rioya qilishlarida, ertalabki gimnastika bilan shugʻullanishlarida hamda ritmik mashgʻulotlarida muntazam qatnashishlarida namoyon boʻladi. Badan tarbiyaning sihat-salomatlikka foydasini oʻquvchi qanchalik yaxshi bilib olsa, Qiziqish shunchaki ortadi.

Goʻzallik — bu avvalo harakatlarning sodda, yengil, izchil va tugal boʻlishidirki, tarbiyachi ham bolalar ham bunga intilsalar, nafosatga erishadi. Albatta ritmik tarbiyaning vazifasi boʻladi faqat goʻzallikni idrok etishinigina shakllantirish boʻlib qolmay, balki ularning kishi harakatidagi chinakam goʻzallikni baholay bilishga ham oʻrgatishidir.[2]

Bolalar bogʻchasi dasturining jismoniy va musiqaviy tarbiya boʻlimida bolalarning harakatini rivojlantirish ishlari nazarda tutiladi. Dastur asosiga ritmik harakat va musiqa layoqatini hamda shu asosda kuy etish va ritm hissiyotni rivojlantirish soxasida amaliy koʻnikmalarni oʻrgatish kiradi. Musiqaviy-ritmik harakat degan maxsus boʻlimga ega. Bolalarda toʻgʻri harakat koʻnikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ritmik gimnastika koʻp yordam beradi. U oddiy harakatlar raqs, gimnastika, umumiy rivojlantirish mashqlarini oʻz ichiga oladi. Mashqlarni qayta-qayta takrorlashlari tufayli bolalarda sekin asta asosiy harakatlari malaka osil boʻlib boradi. Shu bilan birgalikda gavda toʻgʻri shakllanadi, qoʻl va oyoq musiqa ohangiga muvofiq harakat qilishga oʻrganadi. Mashgʻulotlar yengil, quvnoq ritmli va ayniqsa bolalarga tanish musiqa tanlay bilish lozim.

Ritmik gimnastika asosini umumiy rivojlantirish mashqlari tashkil qiladi. U maktab yoshgacha boʻlgan bolalar jismoniy tarbiyasi umumiy sistemasida muhim oʻrin tutib, birinchi navbatda ularning salomatliklarini mustahkamlashda yosh bolalar organizmini chiniqtirishda zarur vosita hisoblanadi. Mashqlarni muntazam takrorlash natijasida hayotda zarur boʻlgan oʻziga xos harakat malakasi hosil boʻla boradi. Ritmik gimnastika nafas organlari rivojlantirish uchun ajoyib vositadir. Harakatlarning ritmligi toʻgʻri nafas olish koʻnikmasini shakllantirishga imkoniyat beradi, bu esa nafas olish va chiqarish kuchi va muddatini, shuningdek,

[2] Qosimova M. Bolalar bogʻchasida xalq milliy raqslari. T., 2003-y.

harakat strukturasi bilan nafas olish, yo‘naltirishga o‘rgatadi. Bola organizmi kislorodga to‘ymagan bo‘ladi, chunki o‘sish va to‘qimalar rivojlanishiga ko‘p quvvat kerak bo‘ladi. Zotan unda kislorodga ehtiyoj katta, bolalarning nafas apparati hali yaxshi shakllanmagan. U entikib nafas oladi. Ozgina jismoniy zo‘riqishda ham uning nafasi qisiladi, nafas olishni u harakat xarakteriga moslay ololmaydi. Ularning hammasi uning chuqur nafas olishiga xalaqit beradi. Bu fiziologik xususiyatni e’tiborga olib, maktab yoshigacha bo‘lgan kichik gruppadagi bolalar bilan ritmik gimnastika mashg‘ulotlarini o‘tkazish maqsadga muvofiq emas. Maktab yoshigacha bo‘lgan katta gruppadagi bolalar bilan ritmik gimnastika mashg‘ulotlarini o‘tkazish nafas sistemasini takomillashtiradi, yurak mushaklarini chiniqtiradi, yurak urish ko‘lamini o‘stiradi, nerv sistemasini rivojlantiradi. Reaksiya, koordinatsiyaning tezkorligi, o‘z harakatlarini anglash bolalarni xar jihatdan boyitadi, aqlini peshlaydi. 5-7 yoshdagi bolalar bilan ritmik gimnastika mashqlarini haftada ikki marotaba o‘tkazish kerak. Mashg‘ulotlar muddati 25-30 minut bo‘lishi mumkin. Mashqlar kompleksi 4 martadan 8 martagacha qaytariladigan, 40 yaqin mashqlarni o‘z ichiga oladi. Mashqlarning ana shunday xilma-xilligi shu yoshdagi bolalar ruhiyati xususiyatiga mos keladi. Bir qolipdagi harakatlar bolalarni tezda charchatib qo‘yadi, shu sababli kompleks uchun mashq tanlashda alohida e’tibor berish kerak. Har bir mashg‘ulotda bolalarda tanish bo‘lmagan bir, ikki xil mashq kiritish lozim. O‘tgan mashg‘ulotlardagi mashqlarni takrorlashda musiqaga e’tibor berish kerak, chunki musiqa bola hissiyotiga tez ta’sir qiladi, bolada ma’lum kayfiyat tug‘diradi. Shuning uchun aynan bir xil mashqlarni turli xil musiqa sadolari ostida o‘tkazish zarur. Musiqa ta’siri ostida bolalarning yosh chegarasi doirasida ifodali xarkat yuzaga keladi.

Mashg‘ulotdan so‘ng choy ichish tavsiya etiladi. Shuningdek, sok, kvas, gazli suv, xo‘l mevalar ham istimol qilsa bo‘ladi. Tavsiya etilgan usullardan kompleks foydalanish yilning issiq vaqtida ritmik gimnastika mashqlarni sog‘lomlashtirish sari yo‘naltirishni kuchaytirishga imkoniyat beradi.

Yurak-tomir va nafas sistemasiga ta’sir ko‘rsatish, tayanch — harakat apparatini mashq qildirish, nerv sistemasiga ta’sir ko‘rsatish kabi funksional yo‘nalishlar salomatlik uchun juda muhim ahamiyatga egadir. Umuman hozircha bizga ma’lum adabiyotlarda ritmik gimnastika mashg‘ulotlarning yetarli aniqlikdagi medik-biologik asoslari yo‘q. Adabiyotlarda tavsiya etilayotgan komplekslar o‘z yo‘nalish jihatidan turlicha bo‘lib, shug‘ullanuvchilar organizmga ta’sirning juda ham keng diapazonini ko‘rsatadi. Xulosa qilib aytganda, ritmik gimnastik bilan shug‘ullanishning kechi yo‘q.

Mashg‘ulotda qanday asbob-uskunadan foydalanishga bog‘liq ·olda tarbiyachi bolalarni qanday saflantirishni o‘ylab ko‘radi va planlashtiradi.

Masalan, tayoqchalar, bayroqchalar bilan mashq bajarish uchun bolalarni qatorga saflantirish, saflantirganda ·ham bolalarni bir-biridan yetarli masofada saflantirish maqsadga muvofiqdir, chunki, xalal beradigan darajada qatorga saflantirish harakatning zarur amplitudasiga erishish imkoniyatini bermaydi, bundan tashqari shikastlanishlarga olib kelishi mumkin.

Katta guruhda umum-rivojlantiruvchi mashqlarni bajarish chog‘ida bolalar oldiga murakkabroq holatlarni aniq olish, mashqlarni turli amplitudada bajarish, harakat yo‘nalishiga rioya qilish va boshqalar qo‘yiladi. Pedagog mashg‘ulot boshlanguniga qadar yirik va mayda jismoniy asbob-uskunalarni tayyorlab ko‘radi, hamda uni muayyan joyga o‘rnatadi. Pedagogning ko‘rsatmasiga muvofiq bolalar bayroqcha, tayoqcha, kubik va boshqalarni mustaqil ravishda borib oladilar, mashq tugagach esa ularni joy-joyiga qo‘yadilar. Pedagog yirik asbob-uskunalarni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirishda va qayta joylashtirishda bolalarni jalb qiladi

Nazorat savollari:

1. Shovqinli cholg‘ular va predmetlar orqali qanday musiqiy-ritmik harakatlar bajartirish mumkin?
2. Bolalarni musiqiy cholg‘ularda ritmik ko‘rinishlar ijro etish ko‘nikmasini shakllantirishda qaysi metodlardan foydalangan ma’qul?
3. Musiqiy ifoda vositalarini farqlashga o‘rgatishda qanday ritmik harakatlardan foydalanish lozim?
4. Kichik guruhdagi bolalar bilan ritmik gimnastika mashg‘ulotlarini o‘tkazish nima sababdan mumkin emas?

3-Mavzu: Dastlabki milliy raqs harakatlari.

Reja:

1. Turli mavzularga oid milliy raqs harakatlari.
2. Milliy kuylar ostida raqs harakatlari

Tayanch so‘z va tushunchalar: musiqiy fragmentlar, estetik tarbiya, musiqaviy ritmik va ifodaviylik harakatlari, musiqiy uquv, ritm tuyg‘usi, musiqa xotirasi, ritmik-gimnastika harakatlari, musiqiy savodxonlik

1.Turli mavzularga oid milliy raqs harakatlari.

1. Bolalar doira bo‘lib qo‘llarini ushlab yuradilar, har bir musiqiy jumlaga yo‘nalishlarini o‘zgartiradilar. Bu vazifa birinchi musiqa rahbari bilan birgalikda qo‘shiq kuylash ostida o‘tkaziladi, keyin esa musiqa ostida musiqa rahbarining yordamisiz bajariladi.

2. Bolalar doira bo‘lib o‘tiradilar. Chiqarilgan bir bola doira ichida koptok bilan musiqaga mos ravishda harakatlanadi. Musiqiy jumla yakunida u keyingi bolaga koptokni beradi va o‘yin shunday davom etadi.

3. Bola tinglayotgan musiqaning musiqiy jumlasini xayolan qo‘llari orqali doskaga chizadi. Bolaning harakatlari asar tempiga, xarakteriga mos bo‘lishi muhim o‘rin egallaydi.

4. Doskada yoki qog‘ozda turli musiqiy fragmentlarning grafik chizmalar tasvirlangan bo‘lib, bolalar tinglayotgan musiqaga mos chizmalarni tanlaydilar, keyin esa o‘zlari shu musiqaga mos harakatlar o‘ylab topadilar.

Nota yozadigan chiziq pastdan yuqoriga qarab sanalishini musiqa rahbari yozib ko‘rsatib berishi lozim. Skripka kaliti yoki sol kaliti haqida tushuncha berish kerak. Notalar yozilishidan oldin kalit belgisi qo‘yilishi kerakligi, kalitsiz nota yozish mumkin emasligini bolalarga misollar bilan tushuntiriladi. Masalan:

Musiqa rahbari: « Bolalar, maktabdan uyga kelganingizda eshikdan to‘g‘ri kirib ketasizmi, yoki avval kalit bilan ochib keyin kirasizmi?» Bolalar: Kalit bilan ochamiz.

Musiqa rahbari: Demak, kalitsiz uyga kirib bo‘lmas ekan-a? Bolalar: Ha.

Musiqa rahbari: Musiqani yozish uchun ham musiqiy yo‘lni avval kalit bilan ochamiz, ya’ni kalit belgisini qo‘yishimiz shart, aksincha biz musiqa tovushlari olamiga kira olmaymiz.

Shu tarzda nota yozuvi o‘rgatiladi. Yozishdan avval bolalar notalar joylashuvini yodlagan bo‘lishlari kerak. Masalan:

DO-yordamchi chiziqda joylashgan. RE-birinchi chiziqni tagida joylashgan. MI-birinchi chiziqda joylashgan.

FA-birinchi chiziq bilan ikkinchi chiziqning orasida joylashgan.

SOL-ikkinchi chiziqda joylashgan.

LYa-ikkinchi chiziq bilan uchinchi chiziq orasida joylashgan. SI-uchinchi chiziqda joylashgan. Ana shundan keyin bolalar beshta chiziqlarni qaysi birida qanday nota joylashganini o‘zlari topa boshlaydilar.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga musiqa rahbari tayyorlashda ritmik va raqs darsi estetik tarbiyaning asosiy va ta’sir kuchi jihatidan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan omillardan biridir.

Ritmika musiqaviy tarbiya tizimiga kiruvchi fanlardan biridir. Ritmika dastur mazmunini musiqaviy ritmik va ifodaviylik harakatlar malakalari ustida ishlash tashkil qiladi. Ritmika bolalar musiqa tarbiyasi; musiqani tinglash, diqqatni bir joyga to‘plash, ritmni his bila bilishni, mayin va nafis harakatni o‘rgatadi, shu bilan birga bolaning jismoniy rivojlanishida ham ritmik mashqlarning xizmati kattadir. Ritmik mashqlar harakat malaka va ko‘nikmalarni hosil qiladi, gavda mushaklarni chiniqtiradi, nafas olish va qon aylanish sistemasiga ijobiy ta’sir qiladi.

Ritmika bilan shug‘ullanish asosiy musiqa nazariyasi tushunchalarining o‘zlashtirishga yordam beradi. Ritmik harakatlar musiqiy tarbiyaning asosiy manbai hisoblanadi. Bolaning musiqiy qobiliyatining namoyon bo‘lishida, aqliy, estetik va jismoniy rivojida raqs, musiqali o‘yin va musiqa ostida harakat katta ahamiyatga ega. Musiqa faoliyatining bu turlari bolalarning har tomonlama o‘sishiga yordam beradi. Birinchidan, musiqiy uquvi, ritm tuyg‘usi, musiqa xotirasi yaxshi rivojlanadi. Ikkinchidan, raqs va musiqiy harakatlar bolada harakatchanlik, chaqqonlikni rivojlantirib, badanni chiniqtiriladi, qomatning to‘g‘ri o‘sishiga katta yordam beradi. Uchinchidan, musiqa asarlari bolada turlicha emotsional hislar va kayfiyatlar hosil etib bola ongida o‘ziga xos obrazlar yaratadi. Yemak musiqa bilan harakat bolaning aqliy va estetik qobiliyatining hamda irodasini rivojlantirishda ham alohida ahamiyatga ega.

Ritmika va raqs kursining vazifalari*;*

-bolalarda estetik zavqlanish malakasini hosil qilish. Ularning musiqiy qobiliyatini o‘stirish va musiqaga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish.

-musiqa ostida harakatlarni chiroyli, aniq, xushbichim, nafis ma’noli bajarishga erishish. Musiqaning tabiatiga, xususiyatiga e’tibor qilib harakat qilish, harakatlarni sifatlar bajarishga erishish.

-o‘zbek raqs Farg‘ona, Buxoro, Xorazm va Qoraqalpoq maktablarining farqini ajrata bilish, shu maktabning raqs elementlarini o‘rganish:

-bolalarning ijobiy tashabbuskorligini rivojlantirish, bolalarni boshqa xalqlar raqslari bilan qisman tanishtirish.

2.Milliy kuylar ostida raqs harakatlari.

«Askar bo‘laman» (O‘rtacha tez) Kichik guruh uchun

1-holat: bosh uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar belga, o‘ng tomonga bir marta, chap tomonga bir marta boshlarini egadilar.

2-holat: yelka uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar pastga, yelkalar 2 marta o‘ng va chap yelka birin-ketin uchiriladi.

3-holat:qo‘l uchun.

Oyoqlar juft holatda, qullar yuqoriga ikki martadan o‘ng chap tomonga «shamol» harakatini bajaradilar.

4-holat: bel uchun.

Oyoqlar juft holatda, qo‘llar belga «prujina» mashqi bajariladi.

5-holat: Oyoqlar juft holatda, qo‘llar belga, oyoq uchida 4 marta sakraydilar.

6-holat: nafas uchun.

Oldinga bir oz egilib, qo‘llarni pastdan yuqoriga ko‘tarib tushiradilar.

«Qashqarcha» (O‘rtacha tez) Tayyorlov guruhi uchun

1-holat: bosh uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar belga, bosh o‘ng, chap, yuqori va pastga qaratiladi.

2-holat: yelka uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar pastga, yelkalar ikki marta o‘ng, ikki marta chap tomonga aylantiriladi.

3-holat: qo‘l uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar oldinga, yuqoriga yonga birin-ketin harakatlanadi, so‘ng dastlabki holat.

4-holat: bel uchun.

Qo‘llar belga, oyoqlar yelka kengligida, o‘ng va chap tomonga ikki martadan egiladilar.

5-holat: tizza uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar tizzada, yarim egilish — o‘ng va chap tomonga egiladilar.

6-holat: oyoq uchun.

Qo‘llar belga, oyoqlarni navbati bilan oldinga, yonga, orqaga uzatib, dastlabki holatga keladilar.

7-holat: nafas uchun.

Qo‘llar yarim egilgan xolda pastdan yuqoriga ko‘tariladi.

«Do‘lancha» (Sho‘xchan) Katta va tayyorlov guruhlari uchun

1-holat: bosh uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar belga, bosh o‘ng va chap tomonga ikki martadan aylantiriladi.

2-holat: yelka uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar yelkada. Avval o‘ng so‘ngra chap yelka oldinga va orqaga 4 marta aylantiriladi.

3-holat: qo‘l uchun.

4 marta «koptokni yuqoriga ot» harakatini bajariladi.

4-holat: bel uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar belga, 1-deganda oldinga egiladilar,2-deganda dastlabki holat, 3-deganda orqaga egilib, 4-deganda dastlabki holatga keladilar (4-marta).

5-holat: tizza uchun.

O‘ng qo‘l-tirsagi chap oyoq tizzaga, chap qo‘l-tirsagi o‘ng oyoq tizzasiga tekkiziladi.

6-holat: oyoq uchun.

Qullar belga, oyoqlar juft holatda ikki marta sakrab, 3-4 hisobiga o‘ng chap oyoq birin-ketin oldiga va orqaga harakatlantiriladi.

7-holat: nafas uchun.

Qo‘llar orqadan yuqoriga ko‘tarilib oldga tushiriladi va yengil nafas olinadi.

«Olmani otdim» (O‘rtacha tez) Tayyorlov guruhi uchun

1-holat: bosh uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qullar yonga uzatilib, bosh muqom qilinib uchiriladi.

2-holat: yelka uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar belga, yelka uchiriladi.

3-holat: qo‘l uchun.

Qo‘llar navbatma-navbat pastdan yuqoriga ko‘tarilib, so‘ng pastga tushiriladi.

4-holat: bel uchun.

Oyoqlar yelka kengligida, qo‘llar belga, o‘ng va chap tomonga belni ikki martadan aylantiriladi.

5-holat: tizza uchun.

Qo‘llarni pastga «shamol» qilib o‘tirib turiladi (4 marta).

6-holat: oyoq uchun.

4 qadam oldinga, 4 qadam orqaga yuriladi.

7-holat: yarim egilib avval o‘ng tomonga silkitib, keyin chap tomonga silkitadi va qomat rostlanadi (4 marta).

8-holat: nafas uchun.

Qo‘llar yondan yuqoriga ko‘tarilib, oldinga yengil tashlanadi.

Nazorat savollari:

1.Bolalarda musiqa ritmiga monand harakatlanish ko‘nikmalarini shakllantirishda nimalarga ahamiyat qaratish kerak?

2.Musiqiy asarlarga ritmik-gimnastika harakatlarini qo‘yish uslublari qanday?

3. Ritmika va raqs kursining vazifalari nimalardan iborat?

4. Ritmik harakatlarni bajarish vositalari nimalardan iborat?

5. Ritmik harakatlarni musiqiy savodxonlikka qanday ta’siri bor ?

6.Musiqiy-ritmik harakatlarni bajarishda qanday atributlardan qo‘llaniladi?

IV. O‘Z-O‘ZINI TEKSHIRISH UCHUN TEST SAVOLLAR

1	Musiqiy-ritmik harakatlar turlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni belgilang?	Yurish, yugurish, sakrash, raqslar, musiqa jo‘rligida gimnastika mashqlari	Bolalar musiqiy cholg‘ularida ijro etish, qo‘shiq kuylash	Raqslar, notalarni yod olish, kuylash	musiqa jo‘rligida gimnastika mashqlari bajarish, musiqa tinglash	1
2	Raqsda inson his-tuyg‘ulari nima orqali ifodalanoladi?	Imo-ishora va harakatlar va musiqa orqali	Bo‘yoqlar orqali	Musiqiy tovushlar orqali	Nutq bilan	1
3	Musiqiy-ritmik harakatlar bolalarning qaysi faoliyatini rivojlantiradi?	Musiqiy rivojlanish, ijodiy qobiliyatini	Musiqiy cholg‘ularda chalish	Kamonli cholg‘ularda ijro etish faoliyatini	Nota va kitob o‘qish faoliyatini	1
4	Musiqiy ritmik harakatlar bolaning ..... rivojlanishiga hissa qo‘shadi.	Jismoniy	nutq	so‘zlash	bilish	1
5	Musiqiy-ritmik harakatlar orqali bolaning qaysi qobiliyatini rivojlantirishi mumkin?	Ritm hissi	Nota o‘qish	Partitura o‘qish	Bilish	1
6	Musiqa mashg‘ulotlarida bajariladigan raqs harakatlari ko‘rsatilgan qatorni belgilang?	«Koptokni yuqoriga ot», «arqonni tort», «tokcha»,«ko‘zguga qara», «xo‘rozcha», «maysani sila»	“Gulni hidlash”	“Chapak chalish”, “do‘stingni ovozidan top”	“Qush va qushchalar”, “kuyini top”, “qaysi cholg‘u yashiringan”	1
7	Musiqiy-ritmik harakatlarni qaysi predmetlar orqali bajarish mumkin?	Zarbli cholg‘ular, bolalar o‘yinchoq cholg‘ulari	Qog‘oz va qalam	Ko‘rgazmali vositalar	Sharlar yordamida	1
8	Musiqiy-ritmik harakatlarni predmetlarsiz qayday bajarish mumkin?	Chapak chalib va oyoqni taqillatib	Predmetlarsiz bajarib bo‘lmaydi	Chapak chalib	Oyoqni taqillatib	1
9	MTT da “Musiqiy-ritmika”ning vazifalari...	Musiqaning tabiatiga, xususiyatiga e’tibor qilib, musiqaga monand ritmik harakatlar bajarish	Cholg‘u musiqasi bilan tanishtirish	Tinglash faoliyatiga o‘rgatish	Musiqiy savodxonligini oshirish	1
10	Musiqiy-ritmika qaysi faoliyat chambarchas bilan bog‘liq?	Jismoniy faoliyat bilan	Tabiat bilan tanishtirish faoliyati bilan	Ekologik tarbiya faoliyati bilan	Ilm-fan bilan tanishtirish	1

MODUL YUZASIDAN MALAKA ISHI MAVZULARI

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ritmik harakatlar orqali musiqiy eshituvni rivojlantirish metodikasi
2. Musiqiy o‘yinlar yordamida bolalarda harakat va ritm uyg‘unligini shakllantirish
3. Ritmik mashqlar asosida bolalarning jismoniy va estetik rivojlanishini ta’minlash
4. Milliy musiqalar asosida ritmik harakatlarni o‘rgatish metodlari (maktabgacha ta’lim misolida)
5. Musiqiy-harakatli o‘yinlarning maktabgacha ta’lim jarayonidagi pedagogik ahamiyati
6. Bolalarda musiqiy ritmni his etishni rivojlantirishda musiqiy o‘yinlardan foydalanish yo‘llari
7. Ritmik harakatlar orqali bolalarda ijodkorlik va mustaqil harakatni rivojlantirish
8. Musiqa mashg‘ulotlarida ritmik harakatlardan samarali foydalanish metodikasi
9. Musiqiy o‘yinlar asosida bolalarning emotsional holatini barqarorlashtirish
10. Ritmik harakatlar va musiqiy o‘yinlarni integratsiyalash orqali ta’lim samaradorligini oshirish
11. Maktabgacha ta’lim tashkilotida “Mehrjon bayrami” mavzusidagi bayram ertaligi uchun ritmik harakatlarni belgilovchi o‘yinlar (o‘yin).
12. Maktabgacha ta’lim tashkilotida “Yangi yilim – yaxshi yilim” mavzusidagi bayram ertaligi uchun ritmik harakatlarni belgilovchi o‘yinlar (o‘yin).
13. Milliy musiqalar asosida ritmik harakatlar majmuasini yaratish.
14. 3–4 yoshli bolalar uchun ritmik mashqlar va musiqiy o‘yinlar to‘plami.
15. Maktabgacha ta’lim tashkilotida “Suv qiroli mehmonda” mavzusidagi bayram ertaligi uchun ritmik harakatlarni belgilovchi o‘yinlar (o‘yin).
16. Maktabgacha ta’lim tashkilotida “Go‘zal bahor” mavzusida tadbir raqsi.
17. Maktabgacha ta’lim tashkilotida 5-6 yoshli bolalar uchun ritmik asarlarni moslashtirish.
18. Maktabgacha ta’lim tashkilotida 4-5 yoshli bolalar uchun musiqiy atributlar tayyorlash.
19. “Sog‘ tanda- sog‘lom aql” sog‘lomlashtirish tadbiri uchun atributlar tayyorlash.
20. Yozgi sog‘lomlashtirish tadbirlari uchun atributlar tayyorlash.

TARQATMA MATERIALLAR

1-topshiriq. Musiqiy ritmik mashqlar va o‘yinlarni tahlil qiling

Ф	• fikringizni bayon eting
С	• fikringizni bayoniga sabab ko‘rsating
М	• ko‘rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring
У	• fikringizni umumlashtiring

1-mashq: “Qo‘llar raqsga tushadi”
Maqsad: Harakatni musiqaga moslashtirish.
Bajarilishi:

- Musiqa yangraydi.
- Bolalar qo‘l harakatlari bilan musiqaning ohangiga mos ravishda erkin harakat qiladilar.
- Musiqa rahbari ayrim harakatlarni ko‘rsatadi, bolalar takrorlaydi.

Natija: Ijodiy harakat va musiqiy ifoda rivojlanadi.

---

2. Musiqiy-ritmik o‘yinlar
1-o‘yin: “Kim tezroq sezdi?”
Maqsad: Ritm va musiqiy pauzani sezish.
O‘yin qoidasi:

- Musiqa chalinar ekan, bolalar raqsga tushadilar.
- Musiqa to‘xtaganda kim to‘g‘ri va tez to‘xtasa, o‘sha g‘olib bo‘ladi.

Natija: Eshitish diqqati va tezkorlik oshadi.

2-o‘yin: “Chapak zanjiri”
Maqsad: Jamoa bilan ishlash va ritmni saqlash.
O‘yin qoidasi:

- Bolalar doira bo‘lib turadilar.
- Bir bola chapak bilan ritm boshlaydi.
- Keyingi bola ritmni davom ettiradi.

Natija: Jamoaviylik va ritmik xotira rivojlanadi.

O‘RMON MAKTABI

1. Sichqon...

2. Tuya...

3. Ayiq...

4. Mushuk...

5. Tipratikan...

6. Quyon...

REBUS - TOPISHMOQ






Tikonim kirsa, yomon
Bu
der.....


Qaradi u yon, bu yon,
yozib kulrang .....


yoh
ndan olib rang.
yozdi toping bu


Упражнение 1
И. П.
1
2
3
Упражнение 2
И. П.
1
2
3
Упражнение 3
И. П.
1
2
3

ATAMALAR IZOHLI LUG‘ATI

Maktabgacha ta’lim – maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma’naviy me’yorlarni shakllanishi, bola tomonidan hayotiy va ijtimoiy tajriba olishini ko‘zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayondir;

Bola kompetensiyasi –ma’lum bir yosh davriga xos bo‘lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo‘lgan bolaning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda qadriyatlari;

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – pedagogning butun diqqat-e’tiborini bola shaxsining yaxlitligiga qaratishni, uning nafaqat aql-zakovati, fuqarolik mas’uliyati hissi, balki emotsional, estetik, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish haqida g‘amxo‘rlik qilishga yo‘naltiradigan yondashuv.

Musiqa rahbari - MTT jamoasi tarkibiga kiradigan pedagogik xodim, musiqa faoliyatining tashkil etishning turli shakllari va ko‘rinishlaridan foydalanib, tarbiyalanuvchilarning musiqaga bo‘lgan iqtidorlarini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish ishlari bilan shug‘ullanadi. Musiqa rahbari bitta yoki bir nechta musiqa asboblarini chalishni bilishi, amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat yo‘nalishlarini tarbiyalanuvchilarning individual va yosh xususiyatlarini, ularning ijodiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda belgilashi lozim.

Musiqa tarbiyasi - estetik tarbiya sohalaridan biri; Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan pedagogik jarayon. Bolada ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish maqsadida uning musiqa madaniyatini tarbiyalash va musiqaviy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon. Musiqa tarbiyasining vazifalari: bolaga musiqani sevish va tushunishni o‘rgatish, uning musiqani eshitish qobiliyatini rivojlantirish, unga eng sodda ijrochilik ko‘nikmalarini singdirish.

Musiqa faoliyati - musiqa vositasida rivojlantirish jarayonida musiqa faoliyatining barcha turlarini qo‘llash. Bolalar musiqa faoliyati turlari: musiqani, uning harakati, o‘ziga xos ohanglari, obrazliligi va betakror musiqa san’atini «kuzatish», ya’ni idrok qilish; musiqani tinglash, faol musiqa amaliyoti (qo‘shiq aytish, musiqiy cholg‘ularini chalishdan foydalangan holda); musiqani tinglash va ijro etish bilan bog‘liq bo‘lgan bolalar ijodiyoti. MTTda musiqa faoliyatini tashkil etish turlari: frontal musiqa mashg‘ulotlari (kompleks, mavzu bo‘yicha, yetakchi (dominant), an’anaviy); guruhiy va individual musiqa mashg‘ulotlari (ijodiy, musiqani eshitish iqtidori va ovozni rivojlantirish, raqs harakatlarini o‘zlashtirish, bolalarga musiqa asboblarini chalishni o‘rgatish); musiqa zalidan tashqarida tashkil etilgan musiqa muhiti (mustaqil musiqa faoliyati, musiqa sadolari ostida

uyg‘onish, musiqali hordiq, ertalabki badantarbiya, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari); bayram ertaliklari va badiiy kechalar (mavsumiy, mavzuviy, folklor, o‘yinga asoslangan).

Musiqaga bo‘lgan qobiliyatni rivojlantirish - bolaning tabiiy qobiliyatiga tayangan holda. Unda musiqa madaniyatining asoslarini, ijodiy faollikni shakllantirish orqali qobiliyatini rivojlantirish jarayoni.

Individual yondashuv – ta’lim beruvchining guruhdagi har bir bolaning faol harakat va dam olish paytida barcha ehtiyojlarini e’tiborga olish zarurligini anglatadi. Bu guruhdagi barcha material va jihozlar, umuman o‘qitish muhiti har bir bolaning rivojlanishiga xizmat qilishini hamda mo‘ljallanayotgan faoliyat turlari bolalar rivojlanishidagi farqni e’tiborga olinishini bildiradi.

Kuzatuvchanlik — kishining narsa-hodisalar xususiyatlari, jumladan, ularning tashqaridan unchalik ko‘zga tashlanmaydigan, e’tibor tortmaydigan jihatlari hamda ro‘y bergan o‘zgarishlarni tez payqay bilish va to‘g‘ri aniqlay olish qobiliyati. K.ning shakllanishi ko‘p jihatdan shaxsning qiziquvchanligiga bog‘liqdir.

Ko‘rgazmali vositalar – ta’limning ko‘rgazmali vositalari; tabiat, jamiyat, narsa, hodisalarning tabiiy yoki badiiy ifodasi.

Ko‘rgazmalilik – ta’limning muhim prinsipi va Musiqiy faoliyatlarda didaktik vositalardan foydalanish metodikasini ifodalovchi atama.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni. O‘RQ-595-son, 2019-yil 16-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. 802-son, 2020-yil 22-dekabr.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” qarori. 867-son, 2024-yil 20-dekabr
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-iyuldagi “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 423-son qarori.
7. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil, 29-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkiloti va pedagoglarning ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida” buyrug‘i 323-son buyruq.
8. Grosheva I.V., Mirziyoeva Sh.Sh., Yevstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent 2022-yil.
9. Soipova D. Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2009-yil.
10. Abdullaeva S.Maktabgacha ta’limda musiqiy-ritmik harakatlar metodikasi Toshkent, 2020
11. Groshyeva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T., Ismailova M.A., Kenjabayeva D.A., Gulyamova N.B., Miftayeva N.A “O‘yin orqali ta’lim berish” Uslubiy qo‘llanmasi, T -2020
12. Djurayev R.X. Ta’limda interfaol texnologiyalar. Toshkent. Sano-standart. 2010-yil.
13. Qosimova M. Bolalar bog‘chasida xalq milliy raqslari. Toshkent. 2003-yil.
14. Makkamjonov K.M. Tayyorlov bog‘chalarida jismoniy tarbiya. Toshkent, O‘qituvchi. 1986-yil.
15. Tursunov R. Ashula va raqs ansambli bilan ishlash uslubiyati. Toshkent 2002-yil.
16. Мактабгача таълимда мусиқий машғулотларни ташкил этиш бо‘йича методик тавсиялар - Тошкент, 2022

17. Soliev N. Musiqa savodi alifbosi. Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot, 2003-yil.

Elektron ta’lim resurslari

1. https://avloniy.uz/uz
2. https://ru.wikipedia.org
3. https://www.oecd.org/
4. http://www.gov.uz
5. www. uzedu.uz
6. www.mdomoi.uz